



---

## SOTSIOLOGIK TADQIQOT USULLARI

**Samandarov Zuhridin**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish” kafedrasida o‘qituvchisi*

**Raupov Akbar**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada sotsiologik tadqiqotlarning nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari va amaliy qo‘llanishi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida kuzatish, so‘rov, intervyu, eksperiment, hujjatlarni tahlil qilish hamda kontent-tahlil kabi asosiy metodlar ko‘rib chiqiladi. Amaliy misollar va statistik ma‘lumotlar yordamida mazkur usullarning jamiyat hayotidagi dolzarbligi hamda foydasi izohlanadi. Maqola yakunida metodlarni uyg‘unlashtirish zaruriyati va ularning kundalik hayot hamda ilmiy izlanishlarda tutgan o‘rni haqida xulosa chiqariladi..*


**Kalit so‘zlar:** *Sotsiologik tadqiqot, metodologiya, kuzatish, so‘rov, eksperiment, intervyu, kontent-tahlil, respondent, sensatsion yangilik.*

Sotsiologik tadqiqot usullari mavzusini o‘rganar ekanman, avvalo bu sohaga oid nazariy asoslar va hozirgi vaqtda uning dolzarbligini tushundim. Bugungi murakkab va tezkor ijtimoiy jarayonlarni anglash uchun ilmiy tahlil zarur. Sotsiologik tadqiqotlar jamiyat muammolarini aniqlash va ilmiy yechimlar taklif etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, sotsiologiya faqat nazariy fan emas, balki amaliy jihatdan ham ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda qo‘llaniladi.

XIX asrda Ogyust Kont uni mustaqil fan sifatida shakllantirgan bo‘lsa, Dyurkgeym ijtimoiy faktlarni kuzatish zarurligini ta’kidladi, Marks esa iqtisodiy va tabaqa kurashlarini jamiyat rivoji bilan bog‘ladi. Bu qarashlar hozir ham dolzarbligini saqlab, zamonaviy tadqiqotlar uchun poydevor bo‘lib qolmoqda.

Sotsiologik metodologiya obyektivlik, dalillilik va ishonchlilik tamoyillariga asoslanadi. Ya’ni, ijtimoiy hayotni faqat subyektiv qarashlar emas, balki faktlar, statistika va kuzatuvlar orqali tushunish lozim. Bu nazariyani amaliy qarorlar bilan bog‘lash imkonini beradi. Giddens va Babbie kabi olimlar tadqiqot metodlarini chuqur ishlab chiqib, ularni siyosat, ijtimoiy xizmatlar va turli ijtimoiy guruhlar muammolarini hal qilishga tatbiq etganlar.

Globalashuv sharoitida bunday tadqiqotlar yanada muhim, chunki odamlar o‘zaro kuchliroq bog‘lanmoqda. Oddiy hayotda sezilmaydigan ijtimoiy tendensiyalar aynan ilmiy kuzatuv va tahlil orqali aniqlanadi. Masalan, kundalik odatlardagi kichik o‘zgarishlar yirik ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Agar tadqiqotlar yetarli bo‘lmasa, muammolarni oldindan ko‘ra olish qiyinlik qiladi.



---

Qisqacha aytganda, sotsiologik tadqiqotlar jamiyat hayotida katta ahamiyatga ega. Ular nafaqat olimlar, balki siyosatchilar, o'qituvchilar, tadbirkorlar va oddiy fuqarolar uchun ham kerakdir. Chunki jamiyatni anglamagan inson unda faol yashay olmaydi.


Sotsiologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan usullar haqida yozar ekanman, ular qanchalik keng tushuncha ekanligini sezdim. Har bir usulning o'ziga xos tomoni bor, ularning barchasi jamiyatni chuqurroq anglash, odamlarning fikrlarini, xatti-harakatlarini va ijtimoiy munosabatlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Asosiy usullar qatoriga **kuzatish, so'rov, intervyu, eksperiment, hujjatlarni tahlil qilish va kontent-tahlil** kiradi. Kuzatish metodida ijtimoiy hodisalarni bevosita ko'rib, qayd etish orqali aniq faktlarga ega bo'lish mumkin. Masalan, bir guruh talabalarni auditoriyada dars vaqtida qanday munosabatda bo'lishini kuzatish, ular orasidagi muloqot uslublarni qayd qilish yoki ommaviy tadbirda odamlarning qanday reaksiyalar bildirayotganini ko'rish — bularning barchasi kuzatish metodiga kiradi. Shu jarayonda men odamlarning tabiiy xulqini o'rganaman, ular menga javob bermasa ham o'z xatti-harakatlari bilan ma'lumot berishadi.

So'rov usuli esa keng jamoatchilikning fikrini o'rganishga yordam beradi. Bugungi kunda so'rovlar ko'proq anketa va onlayn shaklda o'tkaziladi. Men bir paytlar talabalar orasida "Siz kuniga necha soat ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazasiz?" degan savol qo'yilgan so'rovni ko'rganman va natijalar meni hayratga solgan. Ko'pchilik talabalar kuniga 5–6 soat vaqtini telefonda sarflar ekan. Bu oddiy savol va javoblar orqali biz jamiyatdagi katta muammolardan biri — yoshlarning internetga qaramligini anglashimiz mumkin. Shuningdek, intervyu shakli ham so'rovning bir ko'rinishi bo'lib, menimcha, u yanada jonliroq. Chunki intervyuda suhbatdosh ko'proq tafsilot beradi, savollarga ochiqchasiga munosabat bildiradi.

Eksperiment metodida esa ijtimoiy muhitga ma'lum bir o'zgarish kiritilib, uning natijalari o'rganiladi. Bu metodni ochiq ilmiy laboratoriyaga o'xshataman, faqat bu safar tajriba obyekti insonlar va ularning ijtimoiy munosabatlari bo'ladi. Masalan, triband yo'laklarda yangilik kiritilsa, yo'lovchilarning aks javobi qanday bo'ladi? Yoki bir guruhda rahbarlik uslubi o'zgartirilsa, jamoaning ish samaradorligi qanday natija beradi? Shu kabi savollarni tekshirish uchun eksperiment eng yaxshi metod hisoblanadi.

Hujjatlarni tahlil qilish jarayonida esa men rasmiy statistikalari, davlat hisobotlari, gazeta va internet materiallarini ko'rib chiqaman. Bu usulning afzalligi shundaki, katta hajmdagi tayyor ma'lumotni tahlil qilsa bo'ladi. Masalan, Davlat statistika qo'mitasining aholi soni yoki migratsiya oqimlari haqidagi hisobotlari juda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, matbuot va internetdagi maqolalarni tahlil qilish orqali jamiyatdagi kayfiyat va tendensiyalarni aniqlash mumkin. Menimcha, hujjatlarni tahlil qilish usuli vaqt jihatidan qulay, ammo ba'zida ma'lumotlarning eskiligi yoki bir tomonlama berilishi tadqiqotni murakkablashtirishi mumkin.




Kontent tahlil esa bugungi axborot asrida nihoyatda dolzarb desam adashmagan bo'laman. Har kuni millionlab postlar, maqolalar, videolar va boshqa kontentlar yaratilmoqda. Ularning barchasini oddiy ko'z bilan kuzatishning iloji yo'q, ammo ilmiy kontent-tahlil metodlari yordamida ularni tizimli ravishda o'rganish mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda "migratsiya" so'zi qanchalik tez-tez ishlatilishini, u qanday kontekstlarda uchrashini yoki odamlarning unga qanday munosabat bildirayotganini tahlil qilish orqali biz jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni chuqurroq tushunamiz.

Amaliy misollar orqali sotsiologik tadqiqotlarning qanchalik foydali ekanini tushunish osonlashadi. Ilmiy kitoblardan o'qilgan nazariy tushunchalar muhim, ammo ular hayotiy tajribalar bilan uyg'unlashgandagina chin ma'noda mazmunli bo'ladi. Men ham o'zim o'qigan statistik ma'lumotlar, tadqiqot natijalari va amaliy tajribalarni ko'rib, sotsiologiya faqat qog'ozdagi raqamlar emas, balki jamiyatni anglashning eng muhim vositasi ekaniga amin bo'ldim.

Masalan, talabalar orasida o'tkazilgan bir so'rov natijasida 70 foiz respondent (javob beruvchi)lar kuniga kamida 5 soat vaqtini internetda sarflashini bildirgan. GWI'ning so'nggi tadqiqotlarida esa, katta yoshli internet foydalanuvchilari kuniga o'rtacha 6 soat 38 daqiqani internetga sarflaydi. Avvaliga bu oddiy raqamdek tuyulishi mumkin, lekin men uni chuqurroq tahlil qilib ko'rganimda juda katta ijtimoiy muammo yashiringanini sezdim. Yoshlarning katta qismi kunning deyarli chorak qismini virtual olamda o'tkazayotgan ekan, bu ularning o'qish samaradorligiga, jismoniy sog'lig'iga va hatto real ijtimoiy munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Men o'zim ham talaba sifatida bu jarayonni yaxshi bilaman, chunki kursdoshlarim orasida dars paytida ham telefonga tez-tez qaraydiganlar ko'p. Demak, raqam ortida hayotiy haqiqat yashiringan, so'rov esa uni yuzaga chiqargan.

Yana bir tajribada ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on xabarlarining tarqalish tezligi haqiqiy xabarlaridan 100 baravargacha tezroq tarqalish ko'rsatkichi yuqori ekani aniqlandi. Bu ma'lumotni o'qiganimda men chuqur o'ylanib qoldim: nega odamlar yolg'on xabarlarni tezroq tarqatadi? Balki, bu xabarlarining sensatsion bo'lishi, hissiyotlarga ko'proq ta'sir etishi yoki odamlarning faktlarni tekshirishga dangasaligi bilan bog'liqdir. Men ham bir necha bor shunday holatni ko'rganman: telegram guruhlarda yoki ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan "tezkor xabar" keyinroq yolg'on bo'lib chiqqan. Shu paytda men sotsiologik tadqiqotlarning nafaqat ijtimoiy jarayonlarni o'rganish, balki axborot xavfsizligini ta'minlashdagi rolini ham chuqurroq angladim.

Shu misollar orqali shuni anglash mumkinki, nazariya va amaliyot bir-birini to'ldiradi. Nazariya bizga umumiy tushunchalar, qonuniyatlar va metodlarni beradi, amaliy tadqiqot esa ularni hayotiy faktlar bilan isbotlaydi. Statistik ko'rsatkichlar esa ijtimoiy jarayonlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi, chunki ular subyektiv fikr emas, balki ko'plab odamlarning real tajribasidan kelib chiqqan obyektiv ma'lumotdir.



Xulosa sifatida men shuni aytmochimanki, sotsiologik tadqiqotlar usullarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham men uchun juda foydali bo'ldi. Avvaliga bu mavzuga oddiy bir o'quv topshirig'i sifatida qaragandim, ammo jarayon davomida men sotsiologiyaning qanchalik hayotiy va dolzarb soha ekanini tobora chuqurroq his qildim. Har bir usulni o'rganar ekanman, ular orqali jamiyatdagi yashirin jarayonlarni ko'rish va ularni ilmiy tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishni o'rgandim.

Yoshlar orasida vaqtni noto'g'ri taqsimlash, axborot oqimidan samarali foydalanmaslik yoki internet qaramligi kabi muammolarni oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Ularni aniqlash uchun so'rov, intervyu, kuzatuv yoki eksperiment kabi usullar juda qo'l keladi. Shu bois, men ham o'zimni kelajakda bunday ilmiy jarayonlarda faol ishtirok etishgni istayman.

Keyingi ilmiy izlanishlarda turli metodlarni uyg'unlashtirish orqali yanada mukammal natijalarga erishish mumkin, deb o'ylayman. Masalan, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish odatlarini o'rganishda so'rov natijalarini kuzatuv orqali tekshirish mumkin. Shu yo'l bilan biz faqat odamlarning aytgan gaplariga emas, balki ularning real xatti-harakatlariga ham e'tibor qaratamiz. Bu esa ilmiy xulosalarni ishonchliroq qiladi.

Qolaversa, davlat siyosati va jamiyat hayotiga oid statistik ma'lumotlarni kontent-tahlil yordamida chuqurroq anglash ham foydali bo'ladi. Bugungi kunda turli manbalardan kelayotgan axborotlarni saralash va ilmiy ko'rinishga keltirish eng muhim vazifalardan biri. Menimcha, bu metod yordamida biz ijtimoiy jarayonlarning nafaqat raqamlarini, balki ular ortidagi maqsad va tendensiyalarni ham ko'rib chiqishimiz mumkin.

Shu tarzda olingan bilimlar nafaqat ilmiy sohada, balki kundalik hayotda ham foyda beradi degan xulosaga keldim. Chunki odamlarni tinglash, ularning xatti-harakatlarini kuzatish, faktlarga asoslanib tahlil qilishlarning barchasi faqat sotsiolog uchun emas, balki har bir inson uchun kerakli ko'nikmadir. Menimcha, sotsiologik yondashuvni hayotda qo'llagan odam jamiyatni yaxshiroq tushunadi, muammolarni tezroq sezadi va ularni hal qilishga ongli ravishda harakat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babbie, E. The Practice of Social Research. 14th edition. Boston: Cengage Learning, 2016.
2. Giddens, A. Sociology. 9th edition. Cambridge: Polity Press, 2017.
3. Bryman, A. *Social Research Methods*. 5th edition. Oxford: Oxford University Press, 2016.
4. Denzin, N.K. & Lincoln, Y.S. (eds.). *The SAGE Handbook of Qualitative Research*. 5th edition. Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2018.
5. Dyurkgeym, E. *Sotsiologik metod qoidalari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2001.

- 
6. Markuze, H. *Sotsiologiya nazariyalari*. Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2015.
  7. Weber, M. *Economy and Society*. University of California Press, 1978 (reprint 2019).
  8. Jiyanmuratova G. *Sotsiologiya tarixi*. Toshkent: Innovatsiya – Ziyo, 2020
  9. Simon Kemp, *Digital 2025: Global overview report, 2025* 5-fevral.